

**VOKAL VA UNING MUSIQADAGI O'RNI*****Inagamova E'zoza Akrom qizi***

*Chirchiq davlat pedagogika univerisiteti San'atshunoslik fakulteti Musiqa ta'limi  
yo'nalishi 3-bosqich talabasi*

***Abdixodirova Go'zal Erali qizi***

*Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti  
Umumiy pedagogika kafedrasи o'qituvchisi  
Xalilova Maxfuza Maxamatjanovna*

*Chirchiq davlat pedagogika univerisiteti San'atshunoslik fakulteti  
Musiqa ta'limi kafedrasи katta o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** ushbu maqolada xonandalik yo'nalishida asosiy o'rinn tutgan vokal, uni an'anaviy, klassik va Estrada singari turlarga bo'linish an'anası, Yevropa vokal san'ati markazi, to'g'ri nafas olish, ijro, xonadalik nafasiga oid amaliy maslahatlar hamda diafragmali nafas olish texnikasi haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** xonanda, vokal, san'at, diafragma, ijro, nafas olish, tovush, kuylash, atakalash.

**Abstract:** In this article, vocals that play a key role in the direction of singing, the tradition of dividing it into traditional, classical and pop genres, the European Center for Vocal Arts, direct breathing, performance, home practical breathing tips. as well as diaphragmatic breathing techniques.

**Keywords:** singer, vocals, art, diaphragm, performance, breathing, sound, singing, attack.

**Аннотация:** В этой статье вокал, играющий ключевую роль в направлении пения, традиция деления его на традиционные, классические и поп-жанры, Европейский центр вокальных искусств, прямое дыхание, перформанс, домашние практические советы по дыханию. а также техники диафрагмального дыхания.

**Ключевые слова:** певец, вокал, искусство, диафрагма, перформанс, дыхание, звук, пение, атака.

**KIRISH**

O'zbekistonda musiqa madaniyatini shakllanishi jarayonlari, musiqada yangicha uslub, musiqa madaniyatini rivojida milliy cholg'ular o'rni va ahamiyatini, tarixiy taraqqiyot davomida xalq mumtoz musiqasi, an'anaviy kasbiy musiqa, xalq bastakorlik yo'llari, shuningdek, folklor - xavaskorlik musiqiy merosi singari shaklan va usluban bir-biriga yaqin ijrochilik ko'rinishlari hamda ushbu musiqiy merosni

bugungi ma’naviy madaniyatimizning bir bo’lagi sifatida namoyon bo’lishi albatta, quvonarli hol.

Xonandalik yo‘nalishida asosiy o‘rin tutgan vokal hozirda ancha ommalashib ketgani sir emas.

Vokalni an’anaviy, klassik va Estrada singari turlarga bo‘linish an’anasi yurtimizga yuqori darajada rivojlangan mamlakatlardan kirib kelgan. Vokalning fiziologik tabiatи barcha etnos va madaniyatlar uchun umumiy bo‘lgan inson fiziologiyasidan kelib chiqib ovozni rivojlantirish metodlarini ishlab chiqaradi. Bu o‘zbek qo‘shiqlarini buyuk vatanimizdan tashqarida ham mashhur bo‘lib ketishlariga imkon beradi. Yurtdoshlarimiz turli xalqaro konkurslar va festivallarda faol ishtirok etmoqdalar, martabali jurining bahosi va ommaning olqishiga sazovar bo‘lmoqdalar.

Nazariy adabiyotlarning guvohlik berishicha, Yevropa vokal san’ati markazi va tarixiy jihatdan eng qadimiysi Italiya hisoblanadi. Eski yozma manbalarda “ekslamatsya” degan tushuncha mavjud. Bu atama hozirda deyarli qo‘llanilmaydi. U “Tovushni avval kuch bilan chiqarish, keyin esa keskin pasaytirish” degan ma’noni anglatadi. O’sha davrlarda ovozni shakllantirish uchun qo‘llanilgan.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Vokal - musiqa san’atining o‘ziga xos turi bo‘lib, eng avvalo ashula aytish mahoratini yuksak darajada o’zlashtirishga asoslanadi. Ashula aytish yakka holda, ansambl yoki xor jo‘rligida ham namoyon bo’lishi mumkin. Muhimi, vokal san’ati hozirgi kunda opera, operetta, musiqali dramalar, komediylar va Estrada konsertlarida ham keng qo‘llanib kelinmoqda.

Vokalda asosiy vosita bu – to’g’ri nafas olishdir. Ijrochi nafas olinishini ro‘yobga chiqarish uchun qaddini to‘g’ri tutish shartdir. Bunda orqa ko‘rinishi - qaddi basti, ya’ni umurtqa pog‘onasi bel qismi yaxshi egilgan va diafragma o‘zining hilpirab turadigan muskulli bog‘imlari yuqori bel umurtqa pog‘onasiga birikadi. Bel qismi diafragma uni qisqarishida xuddi mahkam tutqich bo‘lib hisoblanadi, shuning uchun bel umurtqa pog‘onalari yaxshi mustahkam bo‘lishi kerak.

Ijro nafasning eng murakkab vazifasi bo‘lib, nazorat qiladigan va to‘g‘rilaydigan nafas chiqarishdir. Bu diafragmali nafasni egallashni ta’minlaydi, nafas chiqargandagi havo oqimini to‘g‘rilab, ko‘krak qafasini ijro hajmini saqlashni to‘g‘ri joylaydi.

Ijro - bu nafas chiqarish mahoratidir, lekin hamma professionallar ham bu mahoratga ega emas.

Boshida hamma nafasni birinchi tovush jumlasidanoq tanlamaslikka o‘rgansa yaxshi bovardi, ya’ni uni oxirigacha asta-sekin tekis oqim berib joylashtirsa. u tekis tovushni ta’minlaydi.

Shuni ham esdan chiqarmaslik kerakki, aynan xonandalik nafasi xususida so’z ketar ekan, unga haddan ziyod e’tibor va ba’zida noto’g’ri tasavvur xonandalarga o’z

ovozi, intonasiyası jarang sıfatını nazorat qilish, ijodiy momentlarga yetarlı e'tibor qaratishga imkon bermaydi. Shu sababli boshlovchi xonandaga e'tiborini nafas jarayoniga ortiqcha jalb qilmaslik tavsiya etiladi. Ayni paytda uni buzishga ham yo'l qo'yib bo'lmaydi. Masalan: yelkalarни ko'tarish, qorinni chiqarish, nafasning ortiqcha harakatlari, ayniqsa, ortiqcha havo olish, shuningdek, "nafassiz" kuylash - nafas tayanchisiz kuylash hisoblanadi.

Nafas olish normal kechsa, avval aytilgandek, kuylovchining asosiy e'tiborini chiroyli, erkin jarangga qaratish, u doimo butun ovoz hosil qilish apparati to'g'ri ishlash bilan bog'liqligini yodda tutish lozim. Xonadalik nafasiga oid amaliy maslahatlar quyidagicha: Kuylashni boshlamay turib, o'quvchi gavdasi rostlangan, qorin tortilgan, ko'krak bir muncha ko'tarilgan, bel va yelkalar tekis bo'lishi kerak. Xonandaning umumiy kayfiyatı butun organizmning to'liq mushak erkinligi holatda ijodiy faollik, ko'tarinki kayfiyatini ko'zda tutadi, go'yo kishi yoqimli qayratlangandek. Bunda xayolan aytilgan "Ax" da pastki qovurqalar kengayadi, ularni fanasiya oxirigacha tutib turish lozim.

Nafas olish yengil shovqinsiz (burun va sal ochilgan og'iz orqali) bo'lishi lozim. Nafas soniyasining ulushida go'yo tutib qolinadi va shu "yashirin" nafasda kuylay boshlanadi. Nafasni juda tejab, nafas olish ustakovkasini saqlashga urinish kerak (xuddi havo olishda davom etayotgandek). Bu tovush tayanchini sezish imkonini beradi.

Yanada chuqur nafas olish uchun o'quvchiga o'zi sevgan gul atirini sekin hidlashini tasavvur qilishni aytish lozim. Bu usul ko'plab taniqli pedagog vokalchilar amaliyotidan o'rın olgan. Xonandalik nafasini asta-sekin rivojlantirish va mustahkamlash kerak.

Yana bir muhim ko'nikma tovushni atakalash fikriga, eng yaxshisi yumshoq, lekin aniq ataka, ya'ni tovush siltashsiz va nafas olishsiz, ovoz psychalariga qat'iy zARBASIZ tug'iladigan kuylashning boshlanishidir. Bu silliq ovoz hosil qilish, tobora chiroyli ovoz tembrini ta'minlaydi, to'qimalarni toliqishdan saqlaydi.

To'g'ri, ayrim hollarda, masalan, un psychalari bo'shang bo'lsa, qattiq faol ataka qo'llaniladi. Ifodalilik vositasi sıfatida va metodik maqsadlarda ba'zan nafas olib atakalashdan foydalaniladi. Jarang boshlanishi kabi uning oxiri ham e'tibor talab qiladi. Tajribasiz xonandalar nafasni taqsimlay olmagani uchun frazalar oxiri notinch, beqaror jaranglaydi, jarangni "olish" to'xtatish aniqligi yo'q.

Vokal mashqlar xonandani badiiy asarini ijro etishga tayyorlaydi, ularda vokal mahorati elementlari ishlanadi. Shunday elementlardan biri ritmik uyushqoqlikdir. Bir xil ulushlar cho'zishning aniq va bir maromidaligi, pauzalarga rioya etish ma'lum saboqni talab qiladi.

Ritmik aniqlikka qat'iylik bilan erishish lozim. Odatda, kuylash oldidan, mashq berilgan tempda va barcha uzoqliklarga qat'iy rioya qilib, modulyastion sekvensiya

bo'g'inlari o'rtasida pauzalarni aniq tutib chalinadi. Ta'limning birinchi qadamlaridanoq ritm hissini rivojlantirish – zarur. Bu ko'nikmalarni tarbiyalash tizimida juda muhim jihatdir.

Oldinda turgan vazifalarni o'zlashtirish uchun mashg'ulot boshlanishdagi kayfiyat, xonandaning kuylashga tayyorligi va ijodiy holatga kira olishi katta ahamiyat kasb etadi. Faol bo'limgan tonusi past o'quvchi yuqori natijaga erisha olmaydi.

Diqqatni jamlash, pedagog ko'rsatmalarini fiksatsiyalash, ijodiy ko'tarinkilik birinchi galda talabaning o'ziga bog'liq. Bunda uning qobiliyati, professional sifatlari namoyon bo'ladi. Zarur psixologik sozlanishda pedagogning rolini kamsitib bo'lmaydi. Uning zarur ijodiy muloqot o'rnata olish qobiliyati o'z emostional zaryadi ko'p holda talaba kayfiyatini belgilab beradi.

Bundan tashqari, diafragmali nafas olish texnikasini egallash ijroda nafas ravon yig'ilgan oqim bo'yicha mustahkam sekin chiqarilishini uzilmasligi, tezlik yaxshi shiddat bilan bo'lishiga yordam beradi. Bundan tovush tekis va jarangdor bo'ladi. Asta- sekinlik bilan havo berilishi uni jurangdor ovozli to'lqinlarga aylanishini ta'minlaydi. Nafasni shunday ishlatalishni bilish, u hech qanday qoldiqsiz tovushga aylanishini, ijroda nafas chiqarishni mohirona egallanganligini aniqlaydi. O'qitilmagan ijrochilar nafas olganda ko'pincha ancha ko'p havo yutib, uni birinchi musiqali jumla tovushidayoq sarf qiladilar.

S.Fuchitoning guvohligicha buyuk qo'shiqchi E.Karuzo doimo nafasini maxsus mashqlar bilan chiniqtirgan, havoni sarflashda nazoratni yuqori malakaga yetgunicha kuchaytirgan.

### **XULOSA**

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, vokalda nafas olish mashqlarida haddan tashqari toliqish mumkin emas. Chunki tovush chigalligi, charchash, titrashni keltirib chiqaradi. Xonanda har qanday bir daqiqalik sukutdan unumli foydalanishni bilishi, dam olishi uchun, toliqishni yengish uchun qaytadan mukammal faol nafas olishni bilishi kerak.

### **REFERENCES**

1. Mirzaev Q. Bolalar xor jamoasi bilan ishlash uslubiyoti. Tashkent,2009
2. Mirzaev Q. Aralash xor jamoasi bilan ishlash uslubiyoti. Tashkent,2009
3. Axunov V. Estradnoe penie. 2008 4. Sharafieva N. Xor sinfi. Tashkent: Musiqa, 2005 5. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti. Tashkent, 2004